



## TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARINI QO'LLASH ASOSLARI VA ULARNING MAQSADGA MUVOFIQLIGI

**Aytimova Barshinay Mu'barrek qizi**

Berdaq nomidagi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridika fakulteti talabasi

e-mail: barshinay16a@gmail.com

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-may 2026 yil

Ma'qullandi: 5-may 2026 yil

Nashr qilindi: 6-may 2026 yil

#### KEY WORDS

tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi, aqli norasolik, ruhiy kasallik, sud-psixiatriya ekspertizasi, majburiy davolash, alkogolizm, giyohvandlik.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligida mustahkamlangan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash asoslari, ularning maqsadi va maqsadga muvofiqligi masalasi tahlil etiladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 91-96-moddalari, Rustamboyev M.H, Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. kabi olimlarning ilmiy asarlari hamda «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi qonun normalariga asoslanilgan. Tadqiqot davomida tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining jinoiy jazolardan farqi, ularni qo'llash shartlari va turlari batafsil ko'rib chiqilgan.*

**Kirish.** Jinoyat huquqining eng dolzarb muammolaridan biri ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy choralar tizimini belgilashdir. O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligi ruhiy kasalligi tufayli ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish o'rniga ularni majburiy davolashni nazarda tutadi. Bu yondashuv huquqiy himoyaning insonparvarlik tamoyilini ifodalaydi.

Professor M.H. Rustamboyevning ta'kidlashicha, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari «sud psixiatriya ekspertizasi xulosasiga asoslangan holda muayyan ruhiy kasallikka chalingan va Jinoyat kodeksining Maxsus qismida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli qilmishlardan birini sodir etgan, shuningdek alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan, majburiy ruhiy davolash»dir . Ushbu ta'rif bu choralarning huquqiy tabiatini aniq belgilab beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash asoslarini, ularning maqsadini va jinoiy jazolardan farqli xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil etishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 91-moddasiga ko'ra tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ruhiy kasallik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan ularni davolash va yangi ijtimoiy xavfli harakatlar sodir etishining oldini olish maqsadida tayinlanishi mumkin (lex.uz). Shu bilan birga, 92-modda ushbu choralarni qo'llashning umumiy asoslarini belgilab beradi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra quyidagi uch muhim maqsadni ko'zlaydi:

1. Ruhiiy kasallikka chalingan shaxslar tomonidan yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishining oldini olish;
2. Ruhiiy kasallikka chalinganlarni davolash yoki ularning ruhiy holatini yaxshilash;
3. Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga nisbatan davolash va jazolashning maqsadiga erishishga ko'maklashuvchi sharoit yaratish **Jinoiy jazolardan farqi:** Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. tomonidan tuzilgan darslikda ta'kidlanishicha, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jinoiy jazo hisoblanmaydi va unda jazolash elementlari yo'q. Shuningdek, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qilmishni davlat tomonidan qoralash ham emas, u sudlanganlikni keltirib chiqarmaydi ham. Balki bu chora ruhiy kasallikka chalinganlarni davolash yoki hech bo'lmaganda ularning ahvolini yaxshilash hamda ular tomonidan yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llanadi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini jinoiy jazolardan quyidagi belgilari bilan farq qiladi: u sud qarori bilan (hukm bilan emas) belgilanadi, sudlanganlik holatini keltirib chiqarmaydi, muayyan muddatga belgilanmaydi, balki shaxsni davolash zarurati bilan bog'liq holda qo'llanadi va bekor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 92-moddasiga muvofiq tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash uchun quyidagi asoslar mavjud bo'lishi lozim:

1. Ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida sodir etilishi
2. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish vaqtida aqli raso bo'lgan, lekin sud hukmi chiqarilgunga qadar o'z qilmishining ahamiyatini anglab yetish yoki o'z harakatini boshqarish qobiliyatidan mahrum etadigan ruhiy kasallikka chalinishi
3. Jinoyat sodir etganligi uchun jazoga mahkum qilingan, lekin jazoni o'tash vaqtida ruhiy kasallikka chalinib o'z qilmishining ahamiyatini anglab yetish yoki o'z harakatini boshqarish qobiliyatidan mahrum bo'lishi
4. Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlik kasalligiga yo'liqqan shaxslarning jinoyat sodir etishi.

Jinoyat qonuni mazkur choralar qo'llanishi mumkin bo'lgan shaxslarni to'rt toifaga ajratadi. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. ta'kidlanishicha, bu toifalarning har biri o'ziga xos belgilarga ega:

**Birinchi toifa:** Jinoyat kodeksining Maxsus qismida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli qilmishlardan birini aqli noraso holatda sodir etgan shaxslar. Bunday shaxslar ruhiy kasalligi tufayli o'z harakatining faktik xususiyatini, shuningdek, qilmishning ijtimoiy xavfliligi va biror obyektga nisbatan muayyan zarar yetkazilishini anglab yetmaydi. Ularning qilmishi jinoyat hisoblanmaydi.

**Ikkinchi toifa:** Jinoyat sodir etgandan so'ng jinoiy javobgarlikka to'sqinlik qiluvchi kasallikka chalingan shaxslar. Bu toifadagi shaxslarga aqli rasolik holatida jinoyat sodir etganidan so'ng, dastlabki tergov yoki sud majlisi davomida ruhiy kasallikka chalingan shaxslar kiradi.

**Uchinchi toifa:** Jazoni o'tash vaqtida ruhiy kasallikka chalingan shaxslar. Ular jazoni o'tash vaqtida o'z harakatining ahamiyatini anglamaydi va o'z harakatlarini boshqara olmaydi. Bunday hollarda ularga nisbatan qamoqxona boshlig'ining qarori bilan sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlanadi.

**To'rtinchi toifa:** Qonun jinoyatni aqli raso holatda sodir etgan, ammo alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqanligi tufayli tibbiy yo'sindagi majburlov chorasiga

muhtoj bo'lganlar. Ular umumiy asoslarga ko'ra jinoiy javobgarlik va jazoga tortiladilar, ularga nisbatan majburiy davolash choralari jinoiy jazo bilan bir qatorda qo'llaniladi.

Shaxsning o'z harakatlarini anglay olmaydigan darajadagi ruhiy kasalligi sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasi asosida aniqlanadi. Bunday ekspertiza surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori, sudning esa ajrimi asosida tayinlanadi. O'zR Jinoyat protsessual kodeksining 173-174, 567, 568-moddalarida belgilangan qoidalar asosida ushbu ekspertiza o'tkaziladi.

Sud-psixiatriya ekspertizasini o'tkazishda shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan vaqtida o'z harakatlarini idrok eta oladigan yoki idora qila olmaydigan darajada ruhiy kasal yoki ruhiyati vaqtinchalik buzilgan ekanligi; shaxsning jazo tayinlash vaqtida ruhiy kasal ekanligi; ushbu kasallik surunkali yoki shaxs muayyan vaqt mobaynida tuzalishi mumkinligi; shaxs duchor bo'lgan ruhiy kasallik yana ijtimoiy xavfli oqibat keltirib chiqarishi yoki bunga sabab bo'lishi mumkinligi kabi savollar hal etiladi.

#### Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarning turlari

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 93-moddasida tibbiy yo'sindagi majburlov choralarning quyidagi to'rt turi belgilangan (lex.uz):

#### **a) Majburiy ambulatoriya kuzatuvda bo'lish va ruhiy kasallik mutaxassisida davolanish.**

Jinoyat kodeksi 94-moddasiga muvofiq bu chora ruhiy kasalligi zo'rayib ketayotganligini ko'rsatuvchi alomatlar bo'lmagan, shuningdek, ruhiy holati vaqtincha buzilgan ruhiy kasallarga nisbatan tayinlanadi. Bunday shaxslar dispanser hisobida turib, vaqti-vaqti bilan davolash ko'rigidan o'tkaziladi.

#### **b) Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish.**

Bu davolash turi ijtimoiy xavfliligi ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgan, umumiy asoslarda davolash talab etiladigan ruhiy kasallarga nisbatan tayinlanadi. Umumiy tartibli ruhiy kasalxonalariga o'z ruhiy holatlari va sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishlari xususiyatiga ko'ra davolanishga majbur bo'lgan shaxslar joylashtiriladilar.

#### **v) Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog'liqni tiklash maxsus bo'linmasida majburiy davolanish.**

Bu chora ijtimoiy xavfliligi ko'proq salomatlikni tiklovchi choralarning ko'rilishini talab etadigan, davolash choralari esa ixtiyoriy ravishda o'tkazilishi mumkin bo'lmagan ruhiy kasallarga nisbatan tayinlanadi. Maxsus tartibli shifoxonalarda odatda inson hayotiga tajovuz qilishi bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatni sodir etgan, ruhiy holatiga ko'ra o'zi va atrofdagilarga xavf tug'dirmaydigan shaxslar joylashtiriladi.

#### **g) Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'linmasida majburiy davolanish.**

Bu eng qattiq nazorat ostidagi davolash chora hisoblanib, ruhiy holati o'zi va atrofdagilar uchun xavfli bo'lganlarga nisbatan qo'llaniladi. Bunday shaxslar odatda og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan bo'ladilar. Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida bemorning davolash muassasasidan qochishi va takroran ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishini istisno etadigan qat'iy nazorat ostida davolanadi. **Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy choralari:** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasiga muvofiq alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan shaxslar tommonidan jinoyat sodir etilgan taqdirda, agar tibbiy xulosa mavjud

bo'lsa, sud jazo tayinlash bilan birga ularga tibbiy yo'sindagi choralarni ham tayinlashi mumkin. Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga nisbatan jinoiy jazo tayinlanishi bilan birga tibbiy yo'sindagi majburiy davolash choralari ham tayinlanadi. Bunday shaxslarga nisbatan janoiy ish to'xtatilmay surishtiriv yoki tergov ishlari yoxud ishi sudda ko'rish yoki jazoni ijro etish davom etaveradi. Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan shaxslarga nisbatan majburlov chorasi sud hukmi bilan tayinlanadi, biroq uning muddati ko'rsatilmaydi. Agar aybdor ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan bo'lsa, tibbiy muassasalarda majburiy davolanishi lozim. Davolash nevrologiya dispanserlarida olib boriladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari uzaytirish, o'zgartirish va bekor qilish:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 95-moddasiga muvofiq tibbiy yo'sindagi majburlov choralari muddatini uzaytirish, o'zgartirish va bekor qilish masalalari ruhiy kasalliklar shifoxonadagi komissiyaning xulosasiga asoslangan holda sud tomonidan hal qilinadi. Tibbiy yo'sindagi majburiy chora qo'llanilgan shaxs har olti oyda tibbiy ko'rikdan o'tib turadi va shaxsning ruhiy holatida yuz berayotgan o'zgarishlar yuzasidan xulosa berilib turiladi. Bu xulosalar tibbiy yo'sindagi majburlov choralari uzaytirish, o'zgartirish va bekor qilishga asos bo'ladi. Tibbiy yo'sindagi majburiy davolash chorasi agarda shaxs davolash muassasasida saqlangan bo'lsa, jazo muddatiga qo'shib hisoblanadi. Bunda davolash muassasasida bo'lgan vaqtning bir kuni ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga hisoblanadi.

Alohida ta'kidlash lozimki, tibbiy yo'sindagi majburlov davolanish chorasidan ozod qilinganidan keyin shaxsning ruhiy kasalligi yana qo'zg'alsa, yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgandagina yangi chora belgilanishi mumkin.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari maqsadga muvofiqligi masalasi jinoyat huquqi nazariyasida muhim o'rin tutadi. Professor M.H. Rustamboyev ta'kidlaganidek, bu choraning aniq bir turini qo'llashdan oldin sud belgilangan maqsadlarning har biriga erishish mumkinligiga e'tibor qaratishi lozim. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash qonuniylik, insonparvarlik, inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish kabi tamoyillarga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 31 avgustdagi «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi qonuniga muvofiq ruhiy kasallarga psixiatriya yordami ko'rsatish va ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida davlat tomonidan bir qator kafolatlar belgilab berilgan.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari maqsadga muvofiqligini ta'minlashda quyidagi prinsiplar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Choraning zaruriylik va yetarliligi: faqat shaxs jamiyat uchun haqiqiy xavf tug'dirgan taqdirdagina tayinlanadi;
- Shaxsning ruhiy holati va sodir etilgan qilmishning xususiyatiga muvofiqligi: turli darajadagi xavflilik uchun turli choralari qo'llaniladi;
- Dinamik nazorat: har olti oyda ko'rik o'tkazish orqali chora zaruriyatiga qarab o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin;
- Insonparvarlik: ruhiy kasallarning huquqlari «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi qonun bilan himoya qilinadi.

### **XULOSA**

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jinoyat huquqida alohida o'rin egallab, ularning asosiy mohiyati jinoiy jazodan tubdan farq qiladi. Ushbu choralari jazolashga emas, balki ruhiy kasallikka chalingan shaxslarni davolash, ularning ijtimoiy moslashuvini tiklash hamda jamiyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Shu bois ular sudlanganlikni keltirib

chiqarmaydi va sud hukmi emas, balki sud qarori asosida tayinlanadi. Amaldagi qonunchilikda tibbiy yo'sidagi majburlov choralarining to'rt turi belgilangan bo'lib ambulatoriya kuzatuv, umumiy tartibli psixiatriya shifoxonasi, maxsus bo'lim va kuchaytirilgan kuzatuv ostidagi muassasalar, ular shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi, kasallikning og'irligi hamda atrofdagilar uchun ehtimoliy xavf darajasidan kelib chiqib qo'llaniladi. Bu esa huquqiy va tibbiy mezonlarning uyg'unligini ta'minlaydi. Mazkur choralarining maqsadga muvofiqligi ularning moslashuvchanligi va doimiy nazorat ostida bo'lishi bilan izohlanadi. Xususan, shaxs har olti oyda majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi, zarurat tug'ilganda qo'llanilayotgan chorani o'zgartirish yoki bekor qilish imkoniyatining mavjudligi insonparvarlik tamoyillariga mos keladi va ortiqcha cheklovlarining oldini oladi. O'zbekiston Respublikasining «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi qonuni ruhiy kasallikka chalingan shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur qonun tibbiy majburlov choralarini qo'llashda qonuniylik, insonparvarlik, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va shaxs sha'nini hurmat qilish kabi prinsiplarning ta'minlanishini kafolatlaydi. Shu bilan birga, amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, sud-psixiatriya ekspertizasi xulosalarining sifat darajasi, tibbiy muassasalarning moddiy-texnik bazasi hamda mutaxassislar yetishmovchiligi ayrim hollarda choralarni to'g'ri qo'llashga to'sqinlik qilishi mumkin. Bu esa mazkur sohada tizimli islohotlarni davom ettirish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, tibbiy yo'sidagi majburlov choralari jinoyat huquqining muhim institutlaridan biri bo'lib, ular jamiyat xavfsizligini ta'minlash bilan birga, insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Ularning to'g'ri va asosli qo'llanilishi huquqiy davlat barpo etish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994 yil 22 sentyabrdagi tahrir, so'nggi o'zgartirishlar bilan). — lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi (1997 yil 25 aprel). — lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi Qonuni. — 2000 yil 31 avgust.
5. Rustamboyev M.H. Jinoyat huquqi (Umumiy qism): Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. — T.: ILM-ZIYO, 2006.
6. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. — T.: TDYI nashriyoti.
7. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. (M. Usmonaliyev umumiy tahriri ostida). — T.: Adolat, 1998.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrdagi 23-sonli «Ruhiiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarori.